

QADIMGI MISRDA ILK DEHQONCHILIK YUZAGA KELISHI

SHDPI TARIX KAFEDRASI O'QITUVCHISI **Bobojonov Behruz**
SHDPI 2-KURS TALABASI **Otamurodov Doniyorbek**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Nazarov Nurshod**

SHDPI 1-KURS TALABASI **Sheraliyev Bayramali**

ANNOTATSIYA: Qadimgi Misrning tarixi qadimiy sivilizatsiyalardan biri sifatida o'ziga xos joy egallaydi. Nil daryosining hayotbaxsh suvlari qadimgi Misr uchun asosiy hayot manbai bo'lgan va ilk dehqonchilikning rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida rol o'ynagan. Bu maqolada qadimgi Misrda dehqonchilikning qanday qilib rivojlanganligi va uning jamiyatga ta'siri haqida batafsil so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Nil, Yegipet, Memfis, Xekau Ptax, urug', O'rta yer dengizi, Arab qirlari, piramidalar, irigatsiya.

АННОТАЦИЯ: История Древнего Египта занимает особое место как одной из древних цивилизаций. Живительные воды реки Нил были основным источником жизни для Древнего Египта и сыграли решающую роль в развитии раннего земледелия. В этой статье мы подробно поговорим о том, как развивалось сельское хозяйство в Древнем Египте и его влияние на общество.

Ключевые слова: Нил, Египет, Мемфис, Гекау Птакс, семена, Средиземное море, Аравийские горы, пирамиды, орошение.

ANNOTATION: The history of ancient Egypt occupies a special place as one of the ancient civilizations. The life-giving waters of the Nile River were the main source of life for ancient Egypt and played a decisive role in the development of early agriculture. In this article, we will talk in detail about how agriculture developed in ancient Egypt and its impact on society.

Keywords: Nile, Egypt, Memphis, Hekau Ptax, seed, Mediterranean Sea, Arabian mountains, pyramids, irrigation.

KIRISH. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari uning dehqonchilik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Nil daryosi yiliga bir marta to'lib, uning suvlari qirg'oqdagi yerlarni suv bosib, keyinchalik bu yerlarni unumdor qoldiqlar bilan boyitardi. Bu jarayon "Nilning to'liqinlanishi" deb atalib, u yerlarni o'g'itlash va hosildorlikni oshirish imkonini bergan. Misrliklar suvning to'g'ri boshqarilishi orqali dehqonchilikni rivojlantirish uchun maxsus kanal va sug'orish tizimlarini yaratganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzuni yoritishda Misrning markazlik faoliyatiga va shu bilan birga ijtimoiy mavqeyiga ham alohida e'tibor qaratilib,. Abdujabbor Kabirov "QADIMGI SHARQ TARIXI" Misr tarixining tabiiy shart shart sharoiti haqida malumot berilgan Rajabov, Ravshan Jahon tarixi Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim Misr tarixini davrlashtirish haqida ma'lumot berilgan, F. Boynazarov. Qadimgi davr tarixi, V.I.Avdiev. Qadimgi Sharq tarixi antik davir mualliflarining Misr haqida yozgan asarlari keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Qadimgi Misr deb Nil daryosining birinchi ostonasidan boshlab keng Nil deltasini hosil qilgan tor Nil vodiysiga (kengligi 1 km dan 20 km.gacha) aytiladi. Tor Nil vodiysi Yuqori Misr, deltaning quyi qismidagi viloyat Quyi Misr deb atalgan. («Yegipet» nomi yunoncha, Misr poytaxti Memfis misrcha «Xetkau-Ptax» yoki xikupta «xudo Ptaxning ruhi qal'asi» ma'nosini bildiradigan so'zdan kelib chiqqan.) Misrliklar o'z mamlakatlarini Nil vodiysining haydalgan qora tuproqli yeriga qarab Kemet-»qora yer» deb ataganlar. Misr Afrika qit'asining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan, Suvaysh bo'yni orqali Misr Oid Osiyoning madaniy markazlari bilan bog'langan. Misr Nil daryosi orqali Tropik Afrika va O'rtayer

dengiziga tutashgan. Gerodot «Misr—Nilning sovg'asi», — deb ta'riflaydi. Chunki, Nil daryosi Misr iqtisodiy hayotida yetakchi o'rin tutgan. Nilda har yili 1-iyulda toshqin ko'tarilgan. Bu toshqin sentabr o'rtalarigacha davom etgan davoni oigan. Noyabrda daryo o'z o'zaniga tushgan. Yerga ekilgan urug'lar aprel-mayda hosil kirgan. Nil daryosi Misr iqtisodiyotining asosi dexqonchilikda muhim o'rin tutgan. Mo'l-ko'l hosil sun'iy sug'orish asosida olingan. Misrliklar dehqonchilik ishlariga ko'ra yilni 3 mavsumga bo'lganlar: «to'la suv mavsumi» — Nil toshqini (iyul o'rtalari), «ekin, unish mavsumi» ekishdan hosil yig'ishgacha boigan qishloq xo'jalik ishlarini to'liq sikli (noyabr va may o'rtalari), «quruq mavsum»-yerni dam olish vaqti va shafqatsiz jazirama (may o'rtalaridan iyul o'rtalarigacha) davri. Suv omborlari qurilib, Nil vodiysi to'g'on, kanallar bilan to'g'ri burchakli havza (basseyn) larga bo'lingan. Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashagan. Miloddan avvalgi 10-6ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq oviash bilan shug'ullanishgan. Ular orasida qadimiy som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar va kushitlar bo'lib, ularning aralashuvidan miloddan avvalgi 4 ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan. Aholi nufusining ortishi chorvachilik va dehqonchilikka o'tishni tezlashtirgan, bu esa hududiy jamoalarning paydo bo'lishiga olib keigan. Dehqonchilik qilish uchun kanallar, to'g'onlar qurish zaruriyati tug'ilgan, buning uchun esa o'zaro urushlarda asir tushgan qullar mehnatidan foydalanilgan. Natijada jamoada ijtimoiy tabaqalanish ro'y berib, urug' zodagonlari ajralib chiqqan, qabila sardorlari podshohchalarga aylangan va bir qancha mayda quldorlik davlatlar vujudga kelgan. Keyinchalik ular o'rtasidagi kurash natijasida, shimolda Quyi Misr, janubda Yuqori Misr podshohliklari tashkil topgan. Miloddan avvaigi taxminan 3 ming yillikda ikkaia podsholik birlashib, yagona davlat barpo bo'lgan. Misrning keyingi tarixi 4 asosiy davrga bo'linadi: Ilk podsholik (miloddan avvalgi taxminan 3000-2800), Qadimgi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2800-2250), O'rta podsholik (miloddan avvalgi taxminan 2050-1700), Yangi podsholik (miloddan avvalgi taxminan 1580-1070), So'nggi (Liviya-Sais va Eron) davr (miloddan avvaigi taxminan 1070-332). Ilk podsholik davri sug'orish tarmoqlarining rivojlanishi, tosh va mis kurollarining mukammallashuvi, kuloichilik charxining paydo bo'lishi, ayirboshlash savdosining taraqqiy etishi bilan xarakterlidir. Bu davrda davlat apparati va unga xizmat qiluvchi amaldorlar kotiblar tabakasi shakllangan, ma'muriy okruglar nomlar tashkil topib, ularni noma orqali boshqargan, muntazam ravishda bosqinchilik yurishlari uyushtirilib turilgan, jumiadan, jan. ga Kush (Nubiya)ga, shim-g'arbga - liviyalikiarga va Sinay ya. o. dagi badaviylarga qarshi (bu yerda mis konlari bor edi) yurushlar qilingan. Qadimiy podsholik davrida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va qurilish rivojlanishda davom etgan. Xususiy yer egaligi paydo bo'lgan. Oliy mansabdorchati (vazir) bosh bo'lgan davlat apparati mustahkamlangan. Fir avnlari, shuningdek, bosh konin ham bo'lib, barcha yer va fuqarolarning egasi hisoblangan. Jamoa a'zolari va qisman kelgindilar (asosan, Kush aholisi dan tuzilgan muntazam qo'shin barpo qilingan. Ilohiylashtirilgan fir'avnlarning mutlaq hokimiyati g'oyasi mahobatli maqbaralar ehromlar qurilishida mujassamiantirilgan. Bu ayniqsa III-IV sulotalar davrida (Snofru, Xeops, Xefren, Mikerin ehromlari) avj olgan. Ularni bunyod etishda qurilish va dehqonlar mehnatidan keng foydalanilgan. Miloddan avvalgi 23-22-asrda Misr o'zaro nizoda bo'lgan bir qancha nomlar va mayda davlatlarga bo'linib ketgan. Taxminan 2050 yilda Mentuxotep i davrida mamlakat Fiva shahri gegemonligi ostida qayta birlashgan. Bu shaxar Misrning poytaxtiga aylangan. O'rta podsholik davrida, asosan, XII sulola vakillari hukmronlik qilishgan. Fayyum vohasida yirik irrigasiya ishlari olib borilgan. Jez (bronza) buyumiari paydo bo'lgan. Suriya, Krit, janubda - Punt bilan aloqalar kuchaygan. Senusert III davrida Kush (Nubiyajning bir qismi Misrga qo'shib olingan. XII suioiaga mansub dastlabki fir avnlari davrida o'zaro ichki nizolar davom etmoqda edi. Faqat Amenemxet III davrida (19-a. ning 2-yarmi) isyonkor nomarxiar bo'ysundirilib, markaziy hokimiyat mustahkamlangan. Ittaun shahri Misr poytaxtiga aylangan. Biroq mulkiy tabaqalanishning kuchayishi kambag'ailarning qo'zoloniga sabab bo'lgan, natijada taxminan 1750 y mamlakat yana parchalanib ketgan. Taxminan 1700

yillarda Misrga shimoliy-sharqdan giksosiar bostirib kirib, mamlakatning katta qismini deyarli 110 yil egallab turganlar. Avarisda qo' nim topgan ularning podshoxiari XV va XVI suloiani tashkil etishgan, Fivada manalliy hukmdorlar saqlanib qoigan (XVII suloia). Ushbu suiolaga mansub fir avniardan Sekenenra va Kamos ozodlik urushini boshlab yuborishgan, bu kurash ularning vorisi XVIII sulola asoschisi Yaxmos I (Amasis) tomonidan muvaffaqiyatli yakuniangan. U taxminan 1580 yilda gikoslarni Misrda quvib chiqargan.

Ekinlar: arpa, bug'doy, kunjut, kanop, emmer (polba) xurmo, kokos palmalari akatsiya (qurilish materiallari uchun), uzum va mevali daraxtlar o'sgan. Asosiy ovqat hisoblangan baliq ko'p bo'lgan. Chorva mollari: qo'y, echki, sigir, eshak, cho'chqa boqilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, shunda ullkan davlatning asosiy poydevori bu uning dexqonchiligi xalqning qanday ish bilan mashg'ul bo'lishi va oilasini boqishi uchun dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Zero, bu markazdan o'tgan yo'llar orqali savdo aloqalari yo'lga qo'yilib, davlatning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini ta'minlagan. Taklif o'rnida shuni aytish joizki, dexqonchikda qanday uslubdan foydalanilganligi haqida davlatchiligimiz tarixini o'rganish mobaynida. Shuningdek, qo'shni va rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, biz uchun mavhumligicha qolayotgan masalalar bo'yicha amaliy-nazariy seminar-treninglar tashkil qilish maqsadga muvaffaq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. G. Reder, E. A. Cherkasova. Qadimgi dunyo tarixi. I kism. Toshkent, 1974 yil.
2. Gerodot. Istoriya. M –I, 1972 yil.
3. F. Boynazarov. Kadimgi dunyo tarixi. Toshkent, 2002 yil.
4. Rajabov, Ravshan Jahon tarixi: I qism. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim / Ravshan Rajabov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
5. V.I.Avdiev. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent, 1964 yil
6. Abdujabbor Kabirov "QADIMGI SHARQ TARIXI" TOSHKENT - 2016 "Tafakkur" nashriyoti
7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N. X. (2022). ETNOLOGIK TADQIQOTLARDA TERMINOLOGIYA MUAMMOSI. Oriental Journal of Social Sciences, 2(2), 69-72.
10. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).
11. Sobit, K. (2023). THE LAUNCH OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN THE NEIGHBORHOODS OF SHAHRISABZ CITY. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(1), 398-401.
12. Sunnatovich, Q. I., & Sobit, K. (2023). VARGANZA QISHLOG'IDAN TOPILGAN YODGORLIKLAR TARIXI (I-XV ASRLAR). JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(9), 33-35.
13. Bobokulovna, Q. F. (2024). RESPUBLIKA "TADBIRKOR AYOL" UYUSHMASINING AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOLANTIRISHDAGI ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 35(1), 111-113.
14. Qanoatova, F. (2024). TURIZM RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING AHAMIYATI. YANGI O 'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI, 1(01).

15. Tolibov, N. (2024). EKOTURIZM SOHASIDA TARIXIY JOYLAR VA OBIDALARNING AHAMIYATI. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM IIQBOLLARI, 1(01).
16. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 984-989.
17. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – T. 10. – №. 1S. – C. 5000-5006.
18. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
19. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
20. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o‘g‘li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
21. Otamurodov, D. (2024). IMOM BUXORIY - BUYUK MUHADDIS ALLOMA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI.